

SPORT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY VA INNOVATSION YONDASHUVLARI

Dustov Jonibek Amriddinovich

O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o‘qituvchisi, E-mail: dostovjonibek@5gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada sport turizmini rivojlantirishning zamonaviy innovatsion modellari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Global turizm tizimidagi transformatsion jarayonlar, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish va tajribaviy iqtisodiyot sport turizmi misolida chuqur ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: sport turizmi, innovatsion model, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish, tajribaviy turizm.

СОВРЕМЕННЫЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ СПОРТИВНОГО ТУРИЗМА

Аннотация: В данной научной статье с теоретической и практической точек зрения анализируются современные инновационные модели развития спортивного туризма. Трансформационные процессы в глобальной туристской системе, цифровизация, устойчивое развитие и экономика впечатлений глубоко раскрываются на примере спортивного туризма.

Ключевые слова: Спортивный туризм, инновационная модель, цифровая трансформация, устойчивое развитие, опытный (экспериенциальный) туризм.

MODERN AND INNOVATIVE APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF SPORTS TOURISM

Abstract: This scientific article analyzes modern innovative models for the development of sports tourism from both theoretical and practical perspectives. Transformational processes within the global tourism system, digitalization, sustainable development, and the experience economy are thoroughly examined through the example of sports tourism.

Keywords: Sports tourism, innovative model, digital transformation, sustainable development, experiential tourism.

Keying yillarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda turizm bugungi kunda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining drayverlaridan biriga aylandi. Ayniqsa ichki turizmni rivojlantirish natijasida aholining barcha qatlamlarini shu jumladan talaba-yoshlarni turizm infratuzilmasi obektlariga, yani tarixiy va memoriy yodgorliklar, muzeylar, teatrlar, xalq baxshilarining uy muzeylariga, madaniyat uylariga, zamonaviy sport

inshootlariga sayohatlarni tashkil etish orqali talaba yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustaxkamlash, vatanparvarlik tuygʻusini takomillashtirish, boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining kasbiy sifatlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Turizmning bir necha turlari boʻlib, Sport turizmi-bu tabiiy toʻsiqlarni yengib oʻtishda odamni sport bilan takomillashtirishga qaratilgan sport turi hisoblanadi. Sport turizmi yillar davomida rivojlanib kelmoqda. Sport turizmi toʻsiqlarni yengib oʻtishning turli taktikasi va usullarini qoʻllashdan iborat.

Sport turizmining turlari quyidagilardan iborat:

piyoda yurish-sayyohlik yoʻnalishida harakatlanish asosan piyoda amalga oshiriladi. Asosiy vazifa-relyef va landshaft toʻsiqlarini piyoda, yuqori toifadagi qiyinchiliklar uchun — qiyin relef va iqlim sharoiti boʻlgan joylarda yengib oʻtish.

changʻi turizmi-sayyohlik yoʻnalishi boʻyicha harakatlanish asosan changʻida amalga oshiriladi. Asosiy vazifa-qor va qor-muz qatlamidagi relyef va landshaft toʻsiqlarini changʻida, yuqori toifadagi qiyinchiliklar uchun qiyin iqlim zonalarida va togʻli hududlarda yengib oʻtish.

togʻ turizmi- baland togʻlarda piyoda yurish. Asosiy vazifa togʻ dovonlaridan oʻtish, choʻqqilarga chiqish.

suv turizmi - odatda togʻli hududlarda rafting vositalarida (kemalarda) daryolar boʻylab rafting. Asosiy vazifa daryo tubining relyefi va uning oqimining xususiyatlari natijasida hosil boʻlgan suv toʻsiqlaridan oʻtishdir.

yelkanli turizm - dengizda yoki yirik koʻllarning suv zonalarida suzib yuruvchi kemalarda sayohat. Asosiy vazifa - ichki suvlarda va ochiq dengizda suzish qoidalariga muvofiq kemanday sayohat rejasini bajarishdir.

Transport vositalarida - velosiped turizmi, ot sporti turizmi va avtomobil turizmini oʻz ichiga oladi. Asosiy vazifa - uzoq yoʻnalishdagi relyef-landshaft toʻsiqlarini (har xil relef va qoplamali yoʻllar, qir adir yoqasidagi yoʻllargacha), sayyohlik, chorvachilik va hayvonlarning migratsiya yoʻllari, oʻtish joylari; togʻ dovonlari, traverslar va boshqalar) qiyin sharoitlarda, odatda iqlimi va topografiyasi qiyin boʻlgan togʻli yoki qiyin yerlarda.

Zamonaviy global iqtisodiyotda turizm sohasi eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda sport turizmi alohida strategik yoʻnalish sifatida ajralib chiqmoqda. Sport turizmi nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki hududlarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi kompleks hodisadir. Anʼanaviy turizm modellaridan farqli ravishda, sport turizmi innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Chunki zamonaviy sayyoh passiv tomoshabindan faol ishtirokchiga aylanmoqda. Sport turizmi tushunchasi ilmiy adabiyotlarda sport turizmi quyidagicha talqin etiladi: sport faoliyati, musobaqalar yoki sogʻlomlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlar majmui.

Sport turizmining asosiy komponentlari:

sport infratuzilmasi;

xizmatlar majmuasi;

tajriba va emotsional qoniqish.

Sport turizmida odamlar odatda boshqa hududga, viloyatga yoki mamlakatga boradilar. Demak, joy almashish — muhim komponent. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi: transport (avto, poyezd, samolyot), yo'nalish tanlash, marshrut rejalashtirish.

Sport turizmi ko'pincha tabiiy sharoitda amalga oshiriladi.

Masalan: tog'lar, daryolar, ko'llar, cho'llar, o'rmonlar, dengiz va okeanlar. Shu sababli ekologiya va tabiatni asrash sport turizmida juda muhim ahamiyatga ega.

Har bir hududda sport turizmini rivojlantirish uchun quyidagilar zarur: mehmonxonalar, o'llar, dam olish maskanlari, sport bazalari, ijaraga beriladigan sport anjomlari, yo'l boshlovchilar (gidlar) kerak bo'ladi.

Sport turizmida xavfsizlik asosiy qoidalaridan biridir. Bunga quyidagilar kiradi: qutqaruv xizmatlari, birinchi tibbiy yordam, professional instruktorlar, sug'urta tizimi. sport kiyimlariga ahamiyat berish talab etiladi.

Sport turizmi faqat jismoniy faoliyat emas, balki madaniy almashinuv hamdir. Sayohatchilar bu yo'nalish orqali yangi joylar bilan tanishadi, mahalliy madaniyatni o'rganadi, yangi odamlar bilan muloqot qiladi.

Sport turizmini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning zarurati. Global raqobat sharoitida sport turizmini rivojlantirish an'anaviy usullar bilan cheklanib qololmaydi. Innovatsiya quyidagi omillar bilan izohlanadi:

raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi;

ekologik va ijtimoiy mas'uliyatning oshishi;

iste'molchi xulq-atvorining o'zgarishi.

Sport turizmini rivojlantirishning innovatsion modellari

Raqamli transformatsiya modeli ushbu model sport turizmini boshqarishda sun'iy intellekt, mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bu model xizmatlar sifati va xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi.

Barqaror rivojlanishga asoslangan model, mazkur model ekologik muvozanatni saqlash, mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Tajribaviy (experience-based) model

Bu yondashuvda sayyoh sport faoliyatining bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Natijada sport turizmi shunchaki xizmat emas, balki shaxsiy tajribaga aylanadi.

Innovatsion modellarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi innovatsion sport turizmi hisoblanadi, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

hududiy iqtisodiyotni faollashtiradi;

yangi ish o'rinlari yaratadi;

yoshlar va sportchilar bandligini oshiradi;

milliy sport brendini shakllantiradi.

Sport turizmi zamonaviy turizmning muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat jismoniy faollikni rivojlantirish, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sport turizmi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bir qator asosiy komponentlardan — sport faoliyati, sayohat, tabiiy muhit, infratuzilma, xavfsizlik tizimi hamda madaniy-

ijtimoiy omillardan tashkil topadi. Mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi sport turizmining samaradorligini oshiradi, hududlarning turistik salohiyatini kuchaytiradi va aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, sport turizmini rivojlantirish ekologik barqarorlikni ta'minlash, xavfsizlik choralari kuchaytirish hamda zamonaviy infratuzilmani yaratishni talab qiladi. Umuman olganda, sport turizmi nafaqat dam olish va rekreatsiyaning samarali shakli, balki jamiyatning jismoniy, ma'naviy va iqtisodiy rivojiga xizmat qiluvchi muhim soha sifatida baholanadi. Uni tizimli rivojlantirish esa milliy turizm strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri biriga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, sport jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u insonning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi. Sport turizmini rivojlantirishning innovatsion modellari esa zamonaviy iqtisodiyot sharoitida strategik zaruratdir. Ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar sport turizmini barqaror va raqobatbardosh tizimga aylantiradi. Bizni yurtimizda ham bu sport turini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2018 yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli qarori.
2. Xudoyberdiyev A. "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari". – Toshkent: Fan, 2021.
3. Karimov R. "Sport turizmi va uning iqtisodiyotdagi o'rni". // Turizm va servis jurnali, 2022, №3.
4. Rahmonov S. "Sport turizmini rivojlantirishning innovatsion yo'llari". // Iqtisodiyot va turizm, 2021, №5.
5. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2022.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/sport_turizmi.